



ESHQOBIL SHUKUR PROZASIDA BADIY PSIXOLOGIZM VA TRAGIZM KONTEKSTI ("QORA KUN" HIKOYASI TALQINIDA)

Asqarova Guljahon Rahmatjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 3-bosqich talabasi Elektron pochta:
guljahonasqarova553@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli adib Eshqobil Shukurning "Qora kun" hikoyasi matnshunoslik va badiiy psixologizm mezonlari asosida chuqur tahlil qilingan. Asardagi "Qora kun" sarlavhasining majoziy va falsafiy tabiati ochib berilgan. Qahramonlar ruhiyatidagi nafs inqirozi va syujet chizig'ini belgilab bergan beshta yirik tragik holat ilmiy jihatdan asoslangan. Raqamli platformalarda mavjud bo'lmagan ushbu noyob matn ilk bor keng qamrovli ilmiy muomalaga kiritilmoqda.

Kalit so'zlar: Eshqobil Shukur, badiiy psixologizm, tragizm, "Qora kun" sarlavhasi, nafs inqirozi, ramziylik, kompozitsiya, tilla ko'za, ma'naviy inqiroz.

Аннотация: В данной статье на основе текстологии и художественного психологизма глубоко анализируется рассказ известного писателя Эшкабил Шукура «Черный день». Раскрывается метафорическая и философская природа заглавия «Черный день». Научно обоснованы кризис нафса (эго) в психике героев и пять крупных трагических ситуаций, определяющих сюжетную линию. Эксклюзивный текст, отсутствующий на цифровых платформах, впервые вводится в широкий научный оборот.

Ключевые слова: Эшкабил Шукур, художественный психологизм, трагизм, заглавие «Черный день», кризис нафса, символизм, композиция, кувшин с золотом, духовный кризис.

Abstract: In this article, the short story "The Black Day" by the famous writer Eshqobil Shukur is deeply analyzed based on textual criticism and artistic psychologism. The metaphorical and philosophical nature of the title "The Black Day" is revealed. The crisis of nafs (ego) in the characters' psyche and five major tragic situations that define the plot line are scientifically justified. This exclusive text, completely absent from digital platforms, is being introduced into wide scientific circulation for the first time.

Keywords: Eshqobil Shukur, artistic psychologism, tragism, "The Black Day" title, nafs crisis, symbolism, composition, clay pot of gold, spiritual crisis.

KIRISH (INTRODUCTION)

Badiiy adabiyotda inson ruhiyatining tub qatlamlarini, uning ong osti kechinmalarini va ijtimoiy muhit ta'sirida o'zgarishini tasvirlash ijodkordan yuksak mahorat talab qiladi. O'zbek adabiyotida falsafiy va majoziy tafakkur maktabining yirik vakili Eshqobil Shukur prozasida ramzlar orqali inson psixologiyasini ochib berish yetakchi o'rin tutadi. Adibning "Qora kun" hikoyasi nafs balosining inson shaxsini va



uning borlig'ini qanchalik halokatga yetaklashini chuqur tahlil qilgan asardir. Ushbu tadqiqotning qimmati shundaki, mazkur hikoya internet tarmoqlari va elektron manbalarda umuman mavjud emas. Maqolada ushbu eksklyuziv matn ilk bor chuqur adabiy-psixologik tahlil obyekti sifatida ilmiy muomalaga olib kirilmoqda. "Ushbu maqolada tahlilga tortilgan hikoyaning to'liq matni internet resurslarida mavjud bo'lmaganligi sababli, u maqola oxiridagi 1-ilovada to'liq keltirildi."

ASOSIY QISM (MAIN PART)

Sarlavha poetikasi: Nega aynan "Qora kun"?

Badiiy asar sarlavhasi uning g'oyaviy markazi hisoblanadi. Xalqona tushunchada "Qora kun" – boshga tushadigan og'ir musibat, qashshoqlik yoki kutilmagan baxtsizlik davridir. Biroq Eshqobil Shukur bu tushunchaga chuqur falsafiy va majoziy ma'no yuklaydi. Qahramonlar Abdusattor va uning xotini ongida "Qora kun" so'zi hayotning ezgu onlarini to'xtatib qo'yuvchi mudhish bir qo'rquv formulasiga aylanadi.

Ular yer ostidan tilla ko'zani topgach, mantiqan ularning qora kunlari tugashi kerak edi. Ammo yozuvchi asarda mukammal psixologik teskarilik (paradoks) yaratadi: boylik ularni ozod qilmadi, aksincha, ruhan battar qashshoqlashtirdi. Ularning ongini kelajakda kelishi mumkin bo'lgan noma'lum "Qora kun" qo'rquvi egalladi. Yozuvchi insoniyat fojiasini falsafiy ochib beradi: inson nimani tinmay niyat qilsa va nimadan qo'rqsa, uning hayotiga aynan o'sha narsa bostirib kiradi. Ularning xudbinona niyatlari oilaga haqiqiy "qora kun"larni – farzandlar judoligini boshlab keldi. Demak, "Qora kun" – bu tashqi muhit emas, balki insonning qora niyatlari va nafs ko'rliги natijasidir.

ASARDAGI PSIXOLOGIK TRAGIZMLAR ZANJIRI TAHLILI

Eshqobil Shukur hikoya syujetini tasodifiy voqealar emas, balki qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlar ortidan kelib chiquvchi izchil tragizmlar zanjiri ustiga quradi:

Birinchi tragizm – Eksiztensial inqiroz (Tabiiy mehrning o'limi): O'rtancho o'g'il og'ir bezgak kasaliga chalinganda, ona ko'zadagi tilladan pul sarflashni qizg'onib tabibni chaqirtirmaydi. Xotining: "Odamlarda insof qolmagan, tabib degani talonchidan boshqa narsamas... teringni shilmoqchi..." [1, 148-b.] degan gaplari uning ruhiyatini to'liq nafs boshqarayotganidan dalolat beradi. Farzand hayotini bir ko'za metallga almashtirish – asardagi eng birinchi, eng mudhish ma'naviy tragizmdir.

Ikkinchi tragizm – Ruhiiy begonolashuv va o'z joniga qasd qilish: Katta o'g'il qarz botqog'iga botib, chorasiz qolganda ham ota-ona tillaning taxini bukmaydi. Eng yaqin insonlaridan na moddiy, na ruhiy madad topgan yosh yigit og'ilxonada o'zini osib o'ldiradi. Bu voqea nafs g'olib kelgan joyda oilaviy rishtalar butunlay chirishini ko'rsatuvchi psixologik tragizmdir.

Uchinchi tragizm – Muhit parokandaligi va qochish: Kenja o'g'il ota-onasining bu mudhish va sovuq nafs hovlisidan dahshatga tushadi. Unda o'z oilasiga nisbatan nafrat uyg'onadi va u: "Sizlar bilan yashagandan ko'ra lo'lilar bilan tilanchilik qilib yurganim afzal!" [1, 149-b.] deya uydan bosh olib ketadi. Bu – tirik turib oilaning parokanda bo'lishi tragizmidir.



To'rtinchi tragizm – Ijtimoiy degradatsiya va tirik murdalik: Er-xotin uydagi tilla ko'zaga qaramay, jamiyatda eng qashshoq odamlardek yashaydi. Abdusattor "it talagan yaktak, bit uyalagan ishton" kiyadi, [1, 150-b.] xotini esa birovlarning kirini yuvib charchaydi. Boylik ularning hayotini farovon qilmadi, aksincha, ularni o'z quliga aylantirib, ijtimoiy tirik murda darajasiga tushirdi.

Beshinchi tragizm – Sarobning fosh bo'lishi va jismoniy intifo: Xotin o'lim to'shagida ham o'zini eng baxtli deb o'ylab, "Men boyvachcha bo'lib o'lyapman" deydi. [1, 151-b.] Biroq ko'za ag'darilganda undan tilla emas, mayda toshlar to'kilishi – asarning eng oliy falsafiy yechimidir. Ezgulikka, insonlar hayotini qutqarishga sarflanmagan boylik – aslida oddiy tosh bilan barobardir. [2, 28-b.] Ertasi kuni qo'shnilar ularning jasadini ko'zlari chaqchaygan (dahshat va kechikkan afsus ichida) holatda topishadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Eshqobil Shukurning "Qora kun" hikoyasi shunchaki o'tmish sarguzashtlari haqidagi asar emas, balki bugungi zamonamiz uchun ham dolzarb bo'lgan falsafiy-axloqiy ogohlantirishdir. Muallif yaratgan tragik vaziyatlar negizini tahlil qilar ekanmiz, undagi bosh fojia faqatgina moddiy boylikka ruju qo'yishda emas, balki insoniyatning qalbida ezgu va to'g'ri niyatning o'lganligida ekanligini ko'ramiz. Odamzot har bir amalida doimo to'g'ri niyat qilishi lozim. Hikoya qahramonlari tilla to'la ko'zani topganda oila farovonligi yoki farzandlar kamolini emas, balki faqat "Qora kun" vahimasini niyat qildilar. Natijada, ularning yomon niyatlari ijobat bo'lib, hayotlariga chinakam qora kunlar — farzandlar judoligi va ruhiy tanazzul ko'rinishida kirib keldi.

Afsuski, ushbu ma'naviy inqiroz va nafs ko'rliqi faqat asardagina qolib ketmagan. Bugungi kunimizda ham hayotda o'zimiz guvoh bo'layotgan, atrofimizda tez-tez uchrab turadigan ijtimoiy muammolar (boylik ortidan jigarlarning yuz ko'rmas bo'lib ketishi, ota-onaning pul topish ilinjida farzand tarbiyasini va sog'lig'ini unutib qo'yishi) aynan mana shu qalb qashshoqligining oqibatidir.

Ta'kidlash lozimki, ushbu ibratli hikoya adibning "Asr afsonalari" kitobiga kiritib o'tilgan. Amaliy pedagogik nuqtayi nazardan olganda, ushbu noyob asarni bugungi kun kontekstida, umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida va oliy ta'lim muassasalarida "Nafsni jilovlash va hayotiy niyatning to'g'riligi" kabi mavzularda muammoli diskussiya darslari sifatida tahlil qilish tavsiya etiladi.

Bu yosh avlod ongida moddiy boylik faqat vosita ekanligini, hayotning asl mazmuni esa to'g'ri niyat, qalb pokligi va ma'naviy to'kislikda ekanligini shakllantirishda beqiyos tahliliy manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Eshqobil Shukur. Asr afsonalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.



2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Sulstonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. Ergashova S. Eshqobil Shukur ijodida qo'llangan ramzlar va ularning turlari // Ilmiy jurnallar to'plami. – Toshkent, 2024.